XALQ DEPUTATLARI YANGIQO'RG'ON TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 28 - fevral VI-43-34-6-90-K/23 Yangiqo‘rg‘on tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi doirasida Yangiqo‘rg‘on tumanida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining takliflari to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili to‘g‘risida”, “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunlarining Yangiqo‘rg‘on tumanidagi ijrosi, xususan, xiyobon, istirohat bog‘i, ziyoratgohlar, tepaliklar, qabristonlar, ko‘chalar va aholi punktlarini nomlash va qayta nomlash, ularni davlat tilida ifodalanishi, geografik ob’ektlarning nomlarini qonun hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish maqsadida, shuningdek, geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarini davlat ekspertizasidan o‘tkazish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasi xulosalarini ko‘rib chiqib hamda muhokama qilib Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosi doirasida Yangiqo‘rg‘on tumanida geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha tuman komissiyasining takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Geografik ob’ektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2023-yil 9-yanvardagi №15-00034 sonli xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

3. Geografik ob’ektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Yangiqo‘rg‘on tuman komissiyasi tomonidan tumandagi , xiyobon, istirohat bog‘i, ziyoratgohlar, tepaliklar, qabristonlar, ko‘chalar va aholi punktlarini “Davlat tili to‘g‘risida”, “Geografik ob’ektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunlari talablariga javob bermaydigan nomlarni o‘zgartirish va qayta nomlash bo‘yicha takliflari ilovaga asosan tasdiqlansin.

4. Bunda: xiyobon, maydon, istirohat bog‘i, ziyoratgohlar, tepaliklar, qabristonlar,

ko‘chalarga nom berish va nomlarini o‘zgartirish bo‘yicha takliflar fuqarolar yig‘inlarida muhokama etilgandan so‘ng tuman komissiyasida ko‘rib chiqilganligi;

Shaxslarning ismlari bilan, tarixiy voqealar sharafiga nomlash va qayta nomlash sohasida belgilangan cheklovlarga qat’iy rioya etilganligi e’tiborga olinsin

5. Yangiqo‘rg‘on tuman statistika bo‘limi manfaatdor idoralar bilan birgalikda 2023-yil 1-martiga qadar geografik ob’ektlarning nomlari davlat reestr ma’lumotlar bazasini o‘zining ma’lumotlar bazasi bilan integratsiya qilish hamda geografik ob’ektlar joylashgan joyi, geografik ob’ektning nomi (oldingi nomi) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni berish imkoniyati mavjud bo‘lgan veb-portalni ishga tushirish vazifalari topshirilsin.

6. Xalq deputatlari tuman Kengashining mazkur qarori 10 (o‘n) kun muddatda “Davergeodezkadastr” qo‘mitasiga geografik ob’ektlarning nomlarini davlat reestriga kiritish uchun taqdim qilinsin.

7. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiya raislari zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Najmiddinov**

Xalq deputatlari Yangiqo‘rg‘on
tuman Kengashining
2023 yil 28 fevraldagi
VI-43-34-6-90-K/23-son qaroriga
1-ilova

T/r	**Geografik ob’ektning turi**	**Geografik ob’ektning amaldagi nomi**	**Geografik ob’ektning joylashgan o‘rni**	**Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif**
1	qabriston	nomsiz	Gaiston MFY	Minor
2	qabriston	nomsiz	Gaiston MFY	Ahli Baqiya
3	qabriston	nomsiz	Baraka MFY	Boqiy
4	qabriston	nomsiz	Yangiobod	Mahdumi A’zam
5	qabriston	nomsiz	Xadikent MFY	Barhayot
6	qabriston	nomsiz	Tinchlik MFY	Mulla Is’hoq
7	qabriston	nomsiz	Tuman MFY	Mulla Murod
8	qabriston	nomsiz	Tuman MFY	Dorilfano
9	qabriston	nomsiz	G‘ovazon MFY	Elnazar
10	qabriston	nomsiz	G‘ovazon MFY	G‘ovazon
11	qabriston	nomsiz	Nurafshon MFY	Mozortepa
12	qabriston	nomsiz	Gulshan MFY	Rahmonquleshon
13	qabriston	nomsiz	Xo‘jasho‘rkent MFY	Xo‘jasho‘rkent
14	qabriston	nomsiz	Xo‘jasho‘rkent MFY	Birlashgan
15	qabriston	nomsiz	Ittifoq MFY	Bahouddin Naqshband
16	qabriston	nomsiz	Cho‘ngbag‘ish MFY	Cho‘ngbag‘ish